O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMI
QARORI

2023 - yil 15 - dekabr 331-10-212-Q/23 Toshkent tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2023 yil 23 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-oktabrdagi 330-sonli qarori ijrosi to‘g‘risida”gi 520-10-0-Q/23-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-oktabrda “Yo‘l xo‘jaligi
sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 330-sonli qarori hamda shu asosda qabul qilingan **Toshkent viloyati hokimining 2023 yil 23 oktabrdagi** 520-10-0-Q/23-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6 va 25-moddalariga muvofiq **qaror qilaman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-oktabrda “Yo‘l xo‘jaligi sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 330-sonli qarori hamda shu asosda qabul qilingan **Toshkent viloyati hokimining 2023 yil 23 oktabrdagi** 520-10-0-Q/23-sonli qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qaror bilan yo‘l xo‘jaligi sohasini isloh qilish va yanada rivojlantirish jarayonlarining asosiy ishtirokchilari va ularning vazifalari etib belgilanganligi:

Bunda:

Transport vazirligi - yo‘l xo‘jaligi sohasida yagona davlat siyosatini yuritadi, kadrlar tayyorlash, ilg‘or xorijiy tajribalar asosida standartlarni joriy etish va nazorat tizimini takomillashtirishni ta’minlashi hamda sohada izchil islohotlarni amalga oshirishi;

Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi - avtomobil yo‘llari va sun’iy inshootlarni loyihalashtirish, qurish, rekonstruksiya qilish, ta’mirlash hamda umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini saqlash va tabiiy ofatlarning oldini olish, ularning oqibatlarini bartaraf etish bo‘yicha yagona buyurtmachi hisoblanadi, umumiy foydalanishdagi avtomobili yo‘llarini ta’mirlash, saqlash va jihozlash, yo‘l bo‘yi infratuzilmasini rivojlantirish ishlarini amalga oshirishi hamda yo‘l xo‘jaligi sohasiga zamonaviy texnologiyalarni joriy etishi;

Transport nazorati inspeksiyasi - yo‘l-qurilish obyektlarida shaharsozlik to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari hamda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga rioya etilishi hamda avtotransport vositalarining ruxsat
etilgan vazn va gabarit parametrlariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga
oshirishi;

mahalliy hokimliklar - shaharlar va boshqa aholi punktlari ko‘chalari hamda
ichki xo‘jalik yo‘llarini saqlash, umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llari, shaharlar va boshqa aholi punktlari ko‘chalari hamda ichki xo‘jalik yo‘llari bo‘ylarini ko‘kalamzorlashtirish va obodonlashtirish hamda yo‘l bo‘yi infratuzilmasini rivojlantirish ishlarini amalga oshiradi;

mustaqil muhandis konsultantlar - yo‘l qurilishi obyektlarida loyihani muhandislik boshqarish va texnik nazorat qilish ishlarini Xalqaro muhandiskonsultantlar federatsiyasi (NSIS) amaliyoti va hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi;

loyiha va pudrat tashkilotlari – “Shaffof qurilish” milliy axborot tizimi hamda Davlat xaridlari elektron tizimi orqali o‘tkaziladigan xarid qilish tartib-taomillari yakunlari bo‘yicha umumiy foydalanishdagi avtomabil yo‘llarini loyihalashtirish, qurish va rekonstruksiya qilish, shuningdek, shaharlar va boshqa aholi punktlari ko‘chalarini loyihalashtirish, qurish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlarini amalga oshiradi;

Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamentining Yo‘l harakati xavfsizligi xizmati - yo‘l harakati qatnashchilarining yo‘l harakati xavfsizligiga rioya etishi ustidan nazoratni amalga oshiradi, shaharlar va boshqa aholi punktlari

ko‘chalarini yo‘l harakatini tartibga solish vositalari bilan jihozlash ishlarini ta’minlashi, shuningdek, umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini yo‘l harakatini tartibga solish vositalari bilan jihozlash ishlarini o‘rnatilgan tartibda muvofiqlashtirishi;

2024-yil 1-yanvardan boshlab, yo‘l ishlariga ajratilayotgan mablag‘lardan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi tartib o‘rnatilganligi:

avtomobili yo‘llarida bajariladigan ish turlari qurish va rekonstruksiya qilish, ta’mirlash hamda saqlashdan iborat bo‘lishi;

loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash, yo‘l-qurilish ishlarini amalga oshirish, shuningdek, ularni qabul qilib olishda hajm va sifat ko‘rsatkichlarini nazarda tutadigan tizim (“hajm uslubi”) joriy etilishi;

avtomobil yo‘llarini qurish va rekonstruksiya qilish ishlari yakunlangan obyektlarning asosiy konstruktiv elementlari bo‘yicha kamida uch yillik kafolatli xizmat qilish muddati joriy qilinishi;

yilning harorat yuqori bo‘lgan vaqtlarida avtomobil yo‘llarida yuk tashuvchi transport vositalari va avtopoezd (tirkama)larning (maxsus transport vositalaridan tashqari) harakatlanishiga mavsumiy cheklovlar o‘rnatilganligi;

Transport vazirligi va Avtomobil yo‘llari qo‘mitasining takliflari ma’qullanganligi:

Bunda:

- xalqaro ahamiyatdagi M29 “Toshkent – Termiz” avtomobil yo‘lining “Toshkent – Chinoz” yo‘nalishidagi 817-827 km qismini ilg‘or xorijiy texnologiyalar va zamonaviy xalqaro standartlar asosida sement-beton qoplama qurgan holda rekonstruksiya qilish loyihasini amalga oshirish ishlarini joriy yilda boshlashi;

- xalqaro moliya institutlari ishtirokidagi loyihalar doirasida avtomobili yo‘llarini, shu jumladan umumiy foydalanishdagi avtomobilb yo‘llarini yuqori tezlikda harakatlanishga oid xalqaro talablarga muvofiq loyihalashtirish, qurish va rekonstruksiya qilish ishlarini amalga oshirish hamda kelgusida ushbu yo‘llarga muqobil yo‘llar mavjud bo‘lganda, Vazirlar Mahkamasi qarori bilan “pullik yo‘llar”
toifasiga o‘tkazishi;

“pullik yo‘llar”dan olingan daromadlarni taqsimlash va ushbu yo‘llarni boshqarish masalalari Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilananishi;

2024-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish
infratuzilmasini rivojlantirish dasturini shakllantirishda umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llari, ko‘priklar va sun’iy inshootlarni qurish, rekonstruksiya qilish bo‘yicha avvalgi yillardan o‘tib kelayotgan obyektlarni ustuvor ravishda yakunlashni nazarda tutish;

yangidan boshlanadigan umumiy foydalanishdagi avtomobil’ yo‘llari, ko‘priklar va sun’iy inshootlarni qurish, rekonstruksiya qilish obyektlarini moliyalashtirishni asosan xalqaro moliya institutlari mablag‘lari hisobiga amalga oshirilishi;

2024-yildan boshlab har yili xalqaro moliya institutlaridan umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llari, ko‘priklar va sun’iy inshootlarni qurish, rekonstruksiya qilish obyektlariga 300 mln AQSh dollaridan kam bo‘lmagan miqdorda kreditlar jalb qilib borilishi;

avtomobil yo‘llarini qurish va rekonstruksiya qilish ishlari bo‘yicha loyihalarning texnik topshiriqlarini majburiy ravishda Transport vazirligining sohaviy ilmiy-texnik kengashiga kiritish;

2025-yil 1-yanvardan boshlab, yangidan boshlanadigan yo‘l-qurilish obyektlarida loyihani muhandislik boshqarish va texnik nazorat qilish ishlari autsorsing shartlari asosida Xalqaro muhandislar-konsultantlar federatsiyasi amaliyoti va hujjatlariga muvofiq mustaqil tashkilotlar, shu jumladan xususiy sektor tomonidan amalga oshirilishi;

Yo‘l xo‘jaligi tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” 1-ilovaga muvofiq;

Pullik avtomobil yo‘llarini tashkil etishning istiqbolli loyihalari ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq;

Xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari hamda boshqa kredit muassasalari mablag‘lari hisobiga avtomobil yo‘llarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash bo‘yicha amalga oshiriladigan loyihalar ro‘yxati 3-ilovaga muvofiq;

2023-2026-yillarda ko‘prik inshootlarini tiklash Dasturi 4-ilovaga va

2023-2026- yillarda avtomobil yo‘llarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash Dasturi 5- ilovaga muvofiq;

2023-2026-yillar davomida yo‘l infratuzilmasini kompleks takomillashtirish parametrlari 6-ilovaga muvofiq;

2023-2026-yillar davomida yo‘l bo‘yi infratuzilmasini rivojlantirish parametrlari 7-ilovaga muvofiq;

2023-2026-yillarda umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini ko‘kalamzorlashtirish ishlarining yig‘ma parametrlari 8-ilovaga muvofiq;

2023-2026-yillarda umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llari bo‘yida “yashil belbog‘” tashkil etiladigan obyektlarning manzilli ro‘yxati 9-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyat hokimliklari bilan birgalikda 2024-yil 1-yanvardan boshlab tajriba- sinov tariqasida Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda uzunligi 20 kmgacha bo‘lgan umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini ekspluatatsiya qilish ishlariga autsorsing asosida xususiy sektorni jalb qilish loyihalarini 10-ilovaga muvofiq;

Osiyo infratuzilma investitsiyalari bankidan jalb qilinadigan imtiyozli kredit mablag‘lari hisobidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatida umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llari bo‘yicha loyihalarni "loyihalash - qurish - ekspluatatsiya qilish" uslubini joriy qilgan holda 11-ilovaga muvofiq amalga oshirilishi;

Avtomobil yo‘llari qo‘mitasining tashkiliy tuzilmasi 12-ilovaga muvofiq;

Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi tarkibidagi korxonalarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash maqsadida umumiy qiymati 28,2 mln yevro bo‘lgan xarid qilinadigan maxsus yo‘l texnikalari ro‘yxati 13-ilovaga muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining va O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim hujjatlariga 14-ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. O‘zbekiston Respublikasining "Avtomobil yo‘llari to‘g‘risida"gi Qonuniga
muvofiq shaharlar va boshqa aholi punktlarining ko‘chalari hamda xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llari mahalliy davlat hokimiyati organlari tasarrufida bo‘lishi

ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. Tuman hokimining o‘rinbosari (S.Mirsagatov), Qurilish va uy-joy kommunal bo‘limi (N.Bazarbaev), Obodonlashtirish boshqarmasi (A.Sultonov), Avtomobil yo‘llar bo‘limi (N.Soipov), boshqa ta’luqli tashkilot va mahalla fuqarolar yig‘inlari faollari bilan birgalikda:

shaharlar va boshqa aholi punktlari ko‘chalari hamda ichki xo‘jalik yo‘llarini loyihalashtirish, qurish, rekonstruksiya qilish, ta’mirlash, saqlash, ko‘kalamzorlashtirish, obodonlashtirish va sug‘orish tizimlari bilan ta’minlash hamda yo‘l bo‘yi infratuzilmasini rivojlantirish ishlarini amalga oshirish uchun mahalliy byudjet mablag‘lari hisobidan tizimli ravishda mablag‘ ajratib borilishini;

avtomobil yo‘llarining yo‘l bo‘yi mintaqalarida servis obyektlarini joylashtirish hamda ajratilgan mintaqalarda yashil hududlarni barpo etish va ularni lozim darajada saqlash bo‘yicha jismoniy va yuridik shaxslar bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik amalga oshirilishini;

mahalla fuqarolar yig‘inlari bilan birgalikda ta’mirlangan ichki xo‘jalik yo‘llarini asrash, ularning shikastlanishining oldini olish choralarini ko‘rish, yo‘llarning atrofini ko‘kalamzorlashtirish va obodonlashtirish ishlari amalga oshirilishini;

umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llari, shaharlar va boshqa aholi punktlari ko‘chalarining ajratilgan yo‘l bo‘yi mintaqalarida noqonuniy qurilgan bino-inshootlarning 2024-yil yakuniga qadar o‘rnatilgan tartibda bosqichma-bosqich ko‘chirilishini hamda ajratilgan yo‘l bo‘yi mintaqalari tashqarisida joylashgan binoinshootlarga kirib-chiqish yo‘llarining shaharsozlik normalariga mos ravishda qayta qurilishini ta’minlasin.

5. Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llari bo‘yida yashil hududlarni barpo etish doirasida Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi tarkibidagi “O‘zyo‘lko‘kalamzorlashtirish” davlat muassasasining hududiy bo‘limi “Toshkentyo‘lko‘kalam” davlat muassasasi Toshkent viloyati hokimligi tasarrufiga o‘tkazilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

6. Tuman Avtomobillar yo‘llari bo‘limi (N.Soipov) tegishli tashkilotlar bilan birgalikda avtomobil yo‘llarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlarini loyihalashda, texnik topshiriq shartlarini ishlab chiqishda namunaviy andozalardan voz kechilib, har bir loyihaga alohida yondashuv asosida ularning

qimmatlashuvining oldini olishga;

7. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Sh.Salixov - Dasturlar va hududlar kesimidagi asosiy parametrlar "yo‘l xaritasi"da belgilangan chora-tadbirlar, avtomobil yo‘llari bo‘yini ko‘kalamzorlashtirish ishlari yig‘ma parametrlari ijrosining belgilangan muddatlarda va sifatli bajarilishi hamda mahalliy byudjetlardan talab etiladigan mablag‘larning o‘z muddatida va to‘liq hajmda ajratib borilishi yuzasidan shaxsiy mas’uliyat yuklansin.

9. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari S.Mirsagatovzimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **O.Rustamov**